



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

BOLALARNI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING ROLI

Shomurodova Sarvinoz Mustafo qizi

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish jarayonida pedagogik faoliyatning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Pedagogning kasbiy mahorati, shaxsiy fazilatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi metod va yondashuvlari bolaning intellektual, axloqiy, jismoniy hamda ijtimoiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanishning samaradorligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, tarbiya, rivojlanish, ta'lim jarayoni, bola shaxsi, pedagogik mahorat, innovatsion yondashuv, pedagog.

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВОСПИТАНИИ И РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ

Шомуродова Сарвиноз Мустафо кизи

учитель общеобразовательной средней школы №16 Хатырчинского района Навоийской области

Аннотация

В данной статье освещается роль и значение педагогической деятельности в процессе воспитания и всестороннего развития детей. Анализируется прямое влияние профессиональных навыков, личностных качеств учителя, методов и подходов к организации образовательного процесса на интеллектуальное, нравственное, физическое и социальное развитие ребенка. Также раскрывается эффективность использования современных педагогических технологий и инновационных методов.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, воспитание, развитие, образовательный процесс, личность ребенка, педагогические навыки, инновационный подход, учитель.

THE ROLE OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN CHILDREN'S UPBRINGING AND DEVELOPMENT

Shomurodova Sarvinoz Mustafo qizi

Teacher, Secondary School No. 16 Khatirchi District, Navoi Region

Annotation

This article highlights the role and importance of pedagogical activity in the process of raising and comprehensive development of children. The direct impact of the professional skills, personal qualities of the teacher, methods and approaches to organizing the educational process on the intellectual, moral, physical and social development of the child analyzed. The effectiveness of the use of modern pedagogical technologies and innovative methods is also revealed.

Key words: pedagogical activity, upbringing, development, educational process, child's

personality, pedagogical skills, innovative approach, teacher.

Kirish. Bugungi globallashuv va ta'lim tizimining modernizatsiyasi sharoitida bolalarni har tomonlama rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik faoliyatning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Pedagog bolaga nafaqat bilim beruvchi, balki uning shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy rivojini ta'minlovchi muhim subyekt hisoblanadi. Shu bois pedagogik faoliyatning mazmuni, shakl va metodlarini ilmiy jihatdan o'rganish muhim vazifa sanaladi. Ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalaridan unumli foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Muayyan modulda o'qitishning texnik vositalarini topib, qo'llanish joylarini aniqlash mazkur qo'llanmada o'z aksini topgan. Ta'lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan har bir kishi bugungi kunda yuzaga kelayotgan yangi tushunchalarni anglashi, shuningdek darslarni loyihalash asosida modulli o'qitish texnologiyalardan ham xabardor bo'lishlari kerak. Ushbu o'quv qo'llanmada kam kuch va kam vaqt sarflab, chuqur va puxta bilimlar berish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki insonning ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi.

Pedagogika yunoncha so'z bo'lib, "bola yetaklovchi" ma'nosini bildiradi. Insonning ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatini o'zgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rin egalladi. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Bola tug'ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunigacha bo'lgan davrda har tomonlama yetuk barkamol qilib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim pedagogikasining mavzuyidir. U maktabgacha ta'lim muassasalari va oilaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi birligini, maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi aloqadorlikni, bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ta'minlab, maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta'lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash hamda kuzatish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyatning bolalar rivojiga ta'siri nazariy jihatdan o'rganildi va ilmiy xulosalar chiqarildi.

Bu fanning predmeti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga suyanagan holda faoliyat yuritish;
- 2) maktabgacha ta'lim pedagogikasining ta'lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish;
- 3) ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metod va usullarni axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish;
- 4) bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy sog'ligini ta'miniashda o'qituvchi-tarbiyachining mahorati.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi nazariyasi va amaliyotining maktabgacha yoshdagi bolalarga har tomonlama tarbiya berishda bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha tarbiyani hayot, zamon bilan bog'lab olib borishning zarurligi bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatga egaligiga asoslanadi va quyidagi vazifalarni oldiga quyadi:

- 1) maktabgacha ta'lim sohasidagi pedagogik muammolarni hal qilish;
- 2) maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim olish ehtiyojini, o'qishga qiziqish, kitob o'qish, maktabga borish hissiyatini shakllantirish;

- 3) bolalar tarbiyasida mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatuvchi ilg'or metodlarni qo'llash;
- 4) bolalarga yuksak odob, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni mentalitetimiz asosida o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi ijtimoiy tarbiya tajribasini o'rganadi. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasalari ishini takomil lashtirishga yordam beradi. Pedagogika fani tarbiyani pedagogik hodisa sifatida o'rganib, bir qator tushunchalarni o'z ichiga oladi. Pedagogikada tarbiya, ta'lim, ma'lumot asosiy tushunchalar hisoblanadi.

Bolalarda shu xususiyatlarni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim katta ahamiyat kasb etishi kerak. Fan-texnika va hayotning zamonaviy rivojlanish darajasi maktabgacha ta'lim oldiga o'sib kelayotgan yosh avlodlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonini uzluksiz takomillashtirish vazifasini qo'yadi. Psixologlar, pedagoglar va metodistlar tajribali o'qituvchilar bilan birgalikda matonat bilan darsni tashkil etish yo'llari, shakllari hamda uslublarini izlashmoqda, bilim va ko'nikmalar sifatini ko'tarish sharoitlari ishlab chiqilmoqda. Ta'lim-tarbiya sifatini kuchaytirish talablarini qo'yifmganda yosh avlod bilan matonatli xizmat qilish muhimdir, maktabgacha ta'lim faqatgina aniq bilimlar hajmini belgilabgina qolmay, balki o'zlashtirilgan bilimlar olingan natijalar asosida bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdan iboratdir. M. A. Danilov, L. V. Zankov va boshqalarning tadqiqotlarida bolaning o'quv faoliyati qulay sharoitda, ularning aqliy faoliyatini rivojlantirishning turli vositalardan foydalangan holda kechadi. Demak, ta'lim ushblari boladagi ijodiy faoliyami rivojlantirish uchun matematik tushunchalarni shakllantirishga qaratilishi, ishning turli uslublarini mujassamlashtirishi lozimdir

S.L.Rubinshteynning birinchilardan bo'lib umumiy aqliy rivojlanish borasida qilgan izlanishlari maqsadga muvofiqdir. U ruhshunoslikdagi faoliyat toifasini ruhiy izlanishning obyekt hamda maqsadi qilib kiritdi va asosladi. Faoliyat nazariyasi asosida S.L. Rubinshteyn faoliyat tushunchasini subyektdan obyektga o'tish deb kiritadi. S.L.Rubinshteyn faoliyatning ikkinchi bosqichini obyektidan subyektga qarab borgan aloqadan iborat deb hisoblaydi. S.L.Rubinshteynning diqqat markazida, inson faoliyati jarayonida faqatgina o'ziga xos bo'lgan shaxs sifatida o'zining xususiyatlarini namoyon etib qolmay, balki undagi ruhiyatning shakllanishi obyekt bo'lib aniqlanadi, degan mazmun turadi. "Faoliyat," harakat tushunchalarining fundamental psixologik tushunchalari A. N. Leontev ishlarida yoritilgan. Faoliyat - subyektning bir-biriga bog'langan realligining o'zaro ta'sir ko'rsatishi deb bilgan A.N.Leontev, reallikning bola ongida aks ettirilishi - ta'sirning natijasi bo'lmay, o'zaro ta'sir, ya'ni bir-biriga duch kelgan jarayonlarning natijasidir, deb hisoblaydi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatning bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonidagi samaradorligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ta'lim-tarbiya jarayonining ilmiy asosda, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etilishi bolalar shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, pedagogik faoliyatning to'g'ri yo'lga qo'yilishi bolalarning intellektual rivojlanishida muhim natijalarni yuzaga keltirdi. Xususan, interfaol metodlar, muammoli ta'lim va ijodiy topshiriqlardan foydalanish bolalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qildi. Bu esa bilimlarni ongli o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash darajasining oshishiga olib keldi.

Shuningdek, pedagogik faoliyat bolalarning axloqiy va ma'naviy rivojida ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Pedagog tomonidan tarbiyaviy ishlarning tizimli olib borilishi, ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan faoliyatlar bolalarda mas'uliyat, hurmat, hamkorlik va intizom kabi sifatlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Pedagogning shaxsiy namunasi esa tarbiyaviy ta'sirning samaradorligini yanada kuchaytirdi. Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatning bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Guruhiy va jamoaviy mashg'ulotlar, muloqotga yo'naltirilgan metodlar bolalarda ijtimoiy moslashuv, o'z fikrini erkin ifoda etish va tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilish ko'nikmalarini

shakllantirdi. Bu esa ularning jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

Bundan tashqari, pedagogik faoliyatda innovatsion texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirganligi kuzatildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatning mazmuni, metodlari va shakllari bolalar rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatishini hamda pedagogik jarayonning sifatli tashkil etilishi yuqori pedagogik natijalarga erishish imkonini berishini tasdiqladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonida pedagogik faoliyat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagog bolaning shaxs sifatida shakllanishida bilim beruvchi, tarbiyalovchi va yo'naltiruvchi sifatida muhim rol o'ynaydi. Pedagogik jarayonning maqsadga muvofiq, izchil va ilmiy asosda tashkil etilishi bolalarning aqliy, axloqiy, jismoniy hamda ijtimoiy rivojini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish esa ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Shu sababli pedagogning kasbiy mahorati, mas'uliyati va ijodkorligi bolalar kamolotining muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori» T. «SHarq», 1997y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni T., «O'zbekiston»
3. O'zbekiston Respublikasi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., «O'zbekiston»
4. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligining axborotnomas i. 7-maxsus son.1999.Toshkent. "Sharq" Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.
5. Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasi. Toshkent. TDPU, 2003 yil.